

XUSUSIY UMUMTA'LIM MUASSASALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI TASHKIL QILISH VA XORIJIY TAJRIBALAR

Azamadjonova Dilafruz

Oriental universiteti ta'lim menejmenti yo'naliishi magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10995350>

Annotatsiya. Ushbu maqolada xususiy umumta'lism muassasalarida innovatsion faoliyatni tashkil qilishning zaruriyati, uning istiqbollari va ushbu jarayonda xorijiy tajribalardan foydalanish xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Xususiy umumta'lism muassasalari, innovatsion faoliyat, xorijiy tajriba, nodavlat ta'lim, ta'limni tashkil etish.

ORGANIZING INNOVATIVE ACTIVITY AND FOREIGN EXPERIENCES IN PRIVATE UNIVERSITY EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Abstract. This article talks about the necessity of organizing innovative activities in private general education institutions, its prospects and the use of foreign experiences in this process.

Key words: Private educational institutions, innovative activity, foreign experience, non-state education, organization of education.

ОРГАНИЗАЦИЯ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА В ЧАСТНЫХ УНИВЕРСИТЕТСКИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

Аннотация. В данной статье говорится о необходимости организации инновационной деятельности в частных общеобразовательных учреждениях, ее перспективах и использовании зарубежного опыта в этом процессе.

Ключевые слова: Частные образовательные учреждения, инновационная деятельность, зарубежный опыт, негосударственное образование, организация образования.

Jamiyatning ma'naviy takomili unda amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiya ishlarining mazmuni, shaklmohiyatiga bog'liqdir.

Ta'lim islohoti uzoq yillar davom etadigan jarayondir. Ya'ni, bugun amalga oshirilgan o'zgarishlarning natijasini, uning qanchalik to'g'ri yoki noto'g'ri bo'lganini bir necha o'n yil o'tibgina ko'rish mumkin.

Demak, bu tizimda biror-bir qaror qabul uzoqni ko'ra bilish qobiliyati va juda katta mas'uliyatni talab qiladi. Birgina noto'g'ri tashlangan qadam, yillar o'tib qimmatga tushishi mumkin.

Xususiy ta'lim muassasalari ochish bizda avval ham tajribadan o'tgan. Ilgari bolalarga boshlang'ich ta'lim beradigan xususiy bog'cha-maktablar bo'lardi. Tabiiyki, ularda ta'lim sifati ancha yuqori bo'lgan. Chunki bunday maktablardagi sinflarda o'quvchilar soni nisbatan kamroq bo'lar va bu har bir o'quvchini qamrab olish imkonini berardi.

Bu turdagи maktablar o'z kunini o'zi ko'rgani uchun ham, o'zaro raqobatga kirishishar, sifatlari ta'lim berish, yaxshiroq natija ko'rsatish uchun kurashishardi. Ammo ularning soni nisbatan kam bo'lgani tufayli u qadar ommalashib keta olmadi. Buning ustiga moliyaviy qiyinchiliklar oqibatida birin-ketin yopila boshladi. Davlat ularni o'z vaqtida qo'llab-quvvatlamadi.

Endi sekin-asta ana shu tajribani qayta ishga solish vaqtি keldi. Xususiy ta'lim hamisha o'zini oqlagan. Buni boshqa davlatlar tarixidan ham bilib olish mumkin. Dunyoda dovrug' qozongan universitet yoki maktablarning aksariyati xususiy sektorga tegishli. Misol uchun, Harvard universitetining o'zi dunyoga 75 nafar Nobel mukofoti sovrindorlarini yetishtirib bergen.

Mamlakat bo'yicha eng ko'p muvaffaqiyatga erishgan kishilar ham aynan shu universitet bitiruvchilaridir. Bunday misollarni yana ko'plab keltirish mumkin.

Osiyo taraqqiyot banki bilan hamkorlikda davlat-xususiy sherikligi asosida maktablar tashkil etishdan asosiy maqsad ham muvaffaqiyatli bitiruvchilarni yetishtirib berishdan iborat.

Bunga zarur sharoit yaratib berilsa bo'lgani.

Hukumat ham buning ahamiyatini to'g'ri anglab ularni qo'llab-quvvatlashda davom etyapti. Hatto karantin davrida ham boshqa sohalar qatorida moliyaviy muammolarga duch kelayotgan nodavlat ta'lim tashkilotlari ahvoli o'rganilib, amaliy yordam ko'rsatildi.

Aslida, davlat ta'limni to'liq boshqarishdan ko'ra, uni chetdan turib nazoratga olishi, faoliyatini tartibga solib turishining o'zi yetarli. Ana shundagina ularda yuqori sifatlari ta'limiga, yaxshi natijaga bo'lgan intilish kuchayadi, «yashab qolish» uchun kurashadi. Ta'limdagi korrupsiya ham o'z-o'zidan barham topadi. Chunki nodavlat ta'lim muassasalari o'z obro'si uchun kurashar ekan, bunday holatlarga yo'l qo'ymaslikka urinadi

Buni o'z vaqtida anglab, tegishli islohotlar amalga oshirilayotgani kishiga ancha taskin beradi. Davlat xususiy maktablarni ko'paytirish siyosatini boshlagan ekan, mamlakat kelajagi uchun eng to'g'ri investitsiya kiritildi, deb ayta olamiz.

Shu boisdan ham Respublikamizda bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan ta'lim tizimini pedagogik tahlil qilish, bu jarayonni samarali kechishini ta'minlash zarurati yuzaga keladi. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonunida ta'lim tizimida kadrlar salohiyatini tubdanyaxshilash, tarbiyachi, o'qituvchi, muallim va ilmiy xodimning kasbiy nufuzini oshirish vazifalari belgilab berilgan.

Bu vazifalarni to'laqonli hal etishda o'qituvchi-pedagogning intellektual salohiyati va kasbiy mahorati muhim ahamiyat kasb etadi.

Nodavlat umumiyligi o'rta ta'lim muassasalari o'z faoliyatini Ozbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, Ta'lim to'g'risidagi Qonun, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2004 yil 1-martdagи 100-son qarori bilan tasdiqlangan “U ijtimoiy pedagogika va maxsus metodikalar bilan umumiyligi ilmiy-nazariy asoslarga ega.

Umumiyligi o'rta ta'lim muassasalarida ta'limni tashkil etish ishlari muammolari ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga egadir. Shu bois, pedagogika nazariyasi va amaliyotida bu yo'nalishda bir qancha tadqiqot ishlari olib borilgan. Nodavlat umumiyligi o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim ishlarni tashkil etishi muammosi har doim dolzarb bo'lib qolmoqda. Ushbu muammolar yuzasidan - P.Yusupova, C.C.Mirjalilova, M.N.Azamova, R.Tulaganova, F.Vaxabova, M.Rustamova, Sh.Nabixanova, G.Yuldasheva, M.Abdurasulova, Bikbaeva.N.U, K.M.Maxkamjonov, chet el olimlaridan Ye.T.Nedopekina, A.V.Nikolskaya, X.Klinton, D.B.Elkonin, L.A.Venger, T.V.Tixomirovlarning tadqiqotlarida tatqiq etilgan. Tadqiqotlar tahlilidan malum bo'ldiki, nodavlat umumiyligi o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim ishlarini tashkil etishi muammolari bo'yicha tadqiqot ishlari amalga oshirilgan.

Olimlardan M.Jumaev, G.Djampeisovalar elementar matematik tushunchalarni shakllantirish ahamiyatini tadqiq etganlar. M.Usmonboeva, N.Saidaxmedov, M.Ochilov, Sh.Sodikovalarlar nodavlat umumi o'rta ta'limni tashkil qilishni to'g'ri amalgga oshirishning texnologiyasini asoslab berdilar.

Shuningdek xorijiy pedagoglar, Yan Amos Komenskiy, K.D Ushinskiy, A.S.Makarenko, P.F.Lesgaft ta'lim tashkilotlarida ta'lim- tarbiyaviy ishlarni tashkil etish nazariyasini ishlab chiqqanlar.

Undan tashqari davlatga tegishli va nodavlat umumi o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim ishlarini tashkil etishda zamonaviy texnologiyalar orqali amalgga oshirishi muammolari bo'yicha qator tadqiqot ishlarini amalgga oshirgan olimlardan: Sh.Akbarov, I.Valixo'jaeva, B.Kamolovalar tadqiqotlarida o'yinni ayrim yo'naliishlari ko'rsatilgan.

Xulosa qilib aytganda, nodavlat umumi o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim ishlarini tashkil etishning bugungi kun uchun dolzarb tamoyillarning belgilanganligi mazkur tushunchani nazariyilmiy chegaralash va anglash imkoniyatlarini kengaytiradi. Nodavlat umumi o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim ishlarini tashkil etishda bilimlar majmuasi boyitilib, mazkur bilimlarni nodavlat umumi o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim ishlarini tashkil etishning pedagogik asoslari aniqlanadi. nodavlat umumi o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim ishlarini tashkil etish mazmunining pedagogik nuqtai nazardan ilmiy ta'rif etish, uning o'ziga xos xususiyatlarini belgilash, nodavlat umumi o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim ishlarini tashkil etishning yaxlit pedagogik modelning yaratish, ilg'or shakl va metodlarning aniqlash va uni mamlakatimiz nodavlat umumi o'rta ta'limda qo'llash bugungi ta'lim tizimining dolzarb masalasidir.

REFERENCES

1. "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. Toshkent sh. 2002 yil 6 iyun.
2. O'zbekiston Respublikasi —Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi //Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq nashriyot-matbaa konserni, 1997. – 31-61-b.
3. Nurqulova, G. (2023). PSYCHOLOGICAL CONDITIONS FOR STIMULATING COGNITIVE ACTIVITY IN SCHOOLCHILDREN OF YOUNGER AGE. Modern Science and Research, 2(12), 1262-1265.
4. Ergashevna, N. G. (2023). Improving Educational Mastery Opportunities in Primary School.
5. Nurqulova, G. (2023). ACCENTUATION FOR TEENAGERS. Modern Science and Research, 2(6), 274-276.
6. Haydarova, S., & Nurqulova, G. (2023). EMERGENCE OF AGGRESSION AND NEGATIVISM IN PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF ADOLESCENT PERIOD. International Bulletin of Engineering and Technology, 3(10), 62-64.
7. Nurqulova, G., & Saydaliyeva, M. (2023). PSYCHOLOGICAL METHODS OF EDUCATION AND DEVELOPMENT ACCORDING TO THE CHILD'S TEMPERAMENT. International Bulletin of Engineering and Technology, 3(10), 92-95.